



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 14.04.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

TEXNIK UNIVERSITETLARIDA MUHANDISLIK PSIXOLOGIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Quvondiqov Alijon Farxod o'g'li., Ruzmetova Sayyoraxon Timurxanovna

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti Geodeziya, kartografiya va kadastr
(funktsiyalar bo'yicha) mutaxassisligi 3-kurs bakalavri.,

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrası, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) v, b dosent

Uzbekistan

tdtinfo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhandislik psixologiyasi fani vazifalari, muhandislik psixologiyasining texnika universitetlarida o'qitilish maqsadi haqida so'z yuritiladi. Muhandislik psixologiyasining an'anaviy, tadqiqot metodlari bo'yicha qisqacha ma'lumotlar ham mavjud. Hozirda ta'limda qo'llaniladigan ba'zi ta'lim metodlarning texnika universitetlarida tadbiiq qilishdagi bir necha misollar keltirilgan. Zamonaviy metodlardan interaktiv va sun'iy intellekt yordamidagi ta'limning afzalliklari talabalarning kasbiy qobiliyatlarini namoyon qilish, rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Inson-texnika tizimi texnika talabalariga kelajakda o'z kasbga egallashi va faol olib borishga yordam beradi. Chunki texnika universitetlarning aksariyat soha yo'nalishlari texnika bilan ishlashni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida har bir xodim yoki mutaxassis texnika bilan ishlay olishi, ya'ni texnika bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni, har ikkala subyektning funksiyalari, o'rnini bilish muhimdir. Ushbu fan ana shunday muammolarni, ya'ni, inson-texnika tizimini o'rgatadi.

Sun'iy intellektning muhandislik psixologiyasi fanini o'qitishda qo'llash, ushbu fanni o'zlashtirish samarasi yuqori bo'lishini, talabalarning mavzularni tez tushunishga yordam beradi. Ko'plab sohalarda sun'iy intellektda ishlash oson, ma'lumotlarni tahlil qilib ko'rsatish foydalanish qulay, natijasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shunga yarasha talablar ham oshgan.

Kalit so'zlar: muhandislik psixologiyasi, texnika, tadqiqot metodlari, ta'lim metodlari kasbiy qobiliyat, ta'lim tizimi, sun'iy intellekt, inson-texnika.

Аннотация. В статье рассматриваются задачи дисциплины инженерная психология и цель преподавания инженерной психологии в технических вузах. Также дан краткий обзор традиционных методов исследования в инженерной психологии. Приведены примеры реализации некоторых образовательных методов, используемых в настоящее время в обучении в технических вузах. Преимущества современных методов, таких как интерактивное и основанное на искусственном интеллекте обучение, играют важную роль в проявлении и развитии профессиональных способностей студентов. Система «Человек-техник» помогает студентам технических специальностей приобретать и активно реализовывать свою профессию в будущем. Потому что большинство направлений обучения в технических вузах предполагают работу с технологиями. Это, в свою очередь, означает, что каждый сотрудник или специалист должен уметь работать с технологиями, то есть важно знать взаимосвязь технологий и человека, функции и роли обоих субъектов. Эта наука изучает такие проблемы, как человеко-технические системы. Применение искусственного интеллекта в преподавании науки инженерной психологии повысит эффективность освоения этой науки и поможет студентам быстрее усваивать изучаемые темы. Во многих областях искусственный интеллект прост в работе, удобен в использовании и обеспечивает высококачественные результаты. Соответственно возросли и требования.

Ключевые слова: инженерная психология, технология, методы исследования, методы обучения, профессиональные навыки, система образования, искусственный интеллект, человеко-технологии.

Abstract: This article discusses the tasks of the discipline of engineering psychology, the purpose of teaching engineering psychology at technical universities. There is also brief information on traditional and research methods of engineering psychology. Several examples of the application of some educational methods currently used in education in technical universities are given. The advantages of interactive and artificial intelligence-assisted education from modern methods play an important role in the manifestation and development of students' professional abilities. The human-technical system helps technical students to acquire and actively pursue their profession in the future. Because most areas of technical universities require working with technology. This, in turn, means that each employee or specialist must be able to work with technology, that is, to know the relationship between technology and man, the functions and place of

both subjects. This discipline teaches such problems, that is, the human-technical system. The use of artificial intelligence in teaching engineering psychology will increase the effectiveness of this subject and help students understand the topics quickly. In many areas, artificial intelligence is easy to work with, easy to use, and has high results. Accordingly, the requirements have increased.

Keywords: engineering psychology, technology, research methods, educational methods, professional skills, education system, artificial intelligence, human-technology.

Language: Uzbek

Citation: Kuvondikov , A., & Ruzmetova , S. (2025). MODERN METHODS OF TEACHING ENGINEERING PSYCHOLOGY IN TECHNICAL UNIVERSITIES. Universal International Scientific Journal, 2(4), 79–87. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1495>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15211561>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Texnika bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, XX asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikaning boshqaruvchi inson ongi muammosi-ni yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnika vositalarida foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirish nazarda tutadi. Texnika bilan bemalol "tillashadigan" malakali mutaxassislar tayyorlash, ya'ni, "inson-texnika" dialogining eng samarali yo'llarini izlab topish borasida texnika fanlari muhandislik psixologiyasi fanidan foydala olsagina, bunday muvaffaqiyatga erishadi. Mamlakatimizda mavjud bo'lgan texnika universitetlari odatda ishlab

chiqarish korxonalarini, zavod-fabrikalarga tajribali va malakali mutaxassislar tayyorlab beradi. Va bu mutaxassislar-ga texnologiya qurilmalarini yaratish, muhandislik ishlarini amalga oshiradigan, umuman olganda texnika-texnologiya orqali ishlashni talab qiladi. Muhandislik psixologiyasi texnika universiteti talabalariga kasbiy tayyorgarligi ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti integratsiyasi, umumiy hamda mutaxassislik fanlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, milliy va jahon pedagogikasining eng ilg'or g'oyalari uyg'unligi, zamonaviy-ilm fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yangiliklariga tayangan holda ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Muhandislik psixologiyasi metodlari yordamida tadqiqotchi, talaba yoki qiziqqan shaxs psixik jarayonlar, holatlar va

individual xususiyatlar to'g'risidagi bilimlarni egallashda qo'llaniladi.
1-jadval

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
Kuzatish metodi	Tashqi Ichki Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
So'roq metodi	Og'zaki so'roq Yozma so'roq Erkin so'roq Standartlashtirilgan so'roq
Testlar metodi	Test-so'rov Test-topshiriq Proyektiv-test Sosiometrik test
Eksperiment	Tabiiy-eksperiment Laboratoriya-eksperiment
Modellashtirish	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

R.S.Nemov psixologik tadqiqotning asosiy usullari va ularning birlamchi ma'lumotlarni yig'ishda qo'llaniladigan variantlarini ishlab chiqqan (1-jadval). Va ular amaliyotda ishlatila-yotga eng asosiy metodlar hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatilgan metodlar psixologiya fanining umumiy metodi bo'lib, psixologiyaning barcha tarmoqlarida qo'llana oladi.

Muhandislik psixologiyasida o'rganilayotgan jarayon va hodisalarga

nisbatan psixologiya uchun xos bo'lgan tizimlilik tamoyili asosida yondashiladi. Psixologiya va boshqa fanlar (kibernetika, matematika, fiziologiya) da ishlab chiqilgan ko'plab metodlardan keng foydalani- ladi.

Muhandislik psixologiyaning metodlari:

— Psixologik metodlar. Bu metod yordamida operator faoliyati real-tabiiy yoki laboratoriya sharoitida tahlil qilinadi. Odatda testlar yordamida o'tkaziladigan

sinovlar natijasida insonda xususiyatlari va sifatlarni mavjudligi hamda rivojlanish darajasi aniqlanadi.

— Fiziologik metodlar; mehnat faoliyati davomida operatorning funksional holatini, mazkur faoliyatni bajarishda organizmning tizimlarini reaksiyasini aniqlashda qo'llaniladi. Operatorning fiziologik xususiyatlarini tahlil qilish operatorning vazifaga qanday vositalar va qanday «sarflar» bilan erishayotganini baholash imkonini beradi.

— Matematik metodlar; Kuzatish natijalarini matematik-statik qayta ishlash, operator faoliyatini matematik modellashtirish, muhandislik-psixologik o'lchovlarni amalga oshirish maqsadida qo'llaniladi. Matematik metodlarning bir turi Imitatsiya (simulyatsiya) metodlaridir. Uning mohiyati o'rganilayotgan jarayonlarni kompyuterda modellashtirishga to'g'ri keladi. Muhandislik psixologiyasida bu metodlar - kompyuter yordamida operator faoliyatini simulyatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Mazkur metodlar inson-texnika tizmidagi axborot jarayonidagi qonuniyatlarini va operator faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan fundamental tadqiqotlarga ham, yangi texnika namunalarini inson xususiyatlari va imkomiyatlariga mosligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan muhandislik-psixologik sinovlarida ham qo'llaniladi.

Muhandislik psixologiyasining o'rganish sohalariga, jumladan, tekshirilayotgan shaxsning inson-texnika munosabatlari

sharoitidagi holatlar kiradi. Shaxsning ong osti holatini chuqur va har tomonlama o'rganishga imkon beradigan psixoanaliz metodi muhandislik psixologiyasi uchun muhim hisoblanadi. O'qituvchining talabalarga mazkur fanni o'qitishda qo'llanadigan odatiy metodlarni ko'rib chiqamiz

Eksperiment metodlari variantlari:

❖ Anketa metodi. Bu metodda o'qituvchi talabalarga kasbdagi odamlarning xususiyatlarini, narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlarini o'rgatadi. Ochiq shakldagi anketada javoblar erkin holda to'ldiriladi, yopiq shaklda javoblar berilgan bo'lib, o'ziga ma'qul javobni tanlaydi.

❖ Suhbat metodi. O'qituvchi va talabalar o'rtasida muloqot orqali ma'lumot yig'ish. Suhbat ankeka natijasidan keyin ham qo'llash mumkin.

❖ Longityud metodi. Tanlangan sinaluvchilarni uzoq vaqt davomida qayta-qayta tekshirishdan iborat. Masalan, talaban oliygoxda ta'lim olish vaqtida ko'p marotaba tekshirish.

Kasbiy qobiliyatlarni aniqlash metodikalari talabalarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlashga mo'ljallangan bo'ladi. Xolland metodikasida har bir talabaning kasbiy proforientatsion yo'nalishda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib kelajakda qanday kasb egalari bo'lishini aniqlab beradi


NATIJALAR

Texnika universitetlarida muhandislik psixologiyasining o'qitilishi muhim tomonlari shundaki, texnika bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashdir. Hozirgi davrda talabalarning ma'lumotlarning qabul qilishiga qarab, ommalashgan, samarali metodlar tanlanib, shu orqali o'qitilmoqda. Muhandislik psixologiyasi sohasidagi o'quv usullari innovatsion texnologiyalar va pedagogik metodologiyalarning integratsiyasi orqali

o'zgarmoqda. Quyidagi zamonaviy metodlarni ko'rib chiqamiz:

— Sharq mutafakkirlarining kasb-hunar ta'limi va tarbiyasiga oid metodlari: Venn diagrammasi. Bu metodda Ikki jihatdan foydalangan holda turli tushunchalar, tamoyillar, farazlarni tahlil qilish va umumlashtirishni ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqli tomonlarini aniqlash va solishtirish imkonini beradi.

1-diagramma



Kompyuter tarmoqlari Kiberxavfsizlik

Kompyuter tarmoqlari va kiberxavfsizlik Vinn diagrammasida o'zaro o'xshash va farqli tomonlari tushunarli tarzda yoritilib berish mumkin(1-diagramma).

— Interaktiv o'qitish metodlari: Har xil turdagi texnikaga oid muammolarni muhokama qilish. Misol uchun, Chernobil falokati – Chernobil AESning 4 -reaktorini nazorat qiluvchi operatorlar reaktor tajribasi tayyorgarlik ko'rishda sodir

bo'lgan eng daxshatli fojialardan biridir. Bunda talabalar muhandislik psixologiyasi nuqtai-nazaridan inson omili, texnik xatolik va tashkiliy muammolarni tahlil qiladi.

— Jamoaviy o'qitish metodi: Talabalar o'rtasida jamoaviy ishlarni tashkil etish muhandislik psixologiyasini o'qitishda samarali bo'lishi mumkin. Jamoaviy ishlarda omma oldida o'zini tutishi, birgalikda biror loyihalar yaratish, o'zaro muloqotda bo'lish, fikr - ma'lumotlar almashish talabani fikrlash doirasi hamda ijtimoiy psixologiyasi kuchayadi.

— Aralash ta'lim: Bu metodda onlayn va an'anaviy darslar birgalikda olib boriladi. Inson-texnika o'rtasidagi ta'sir onlayn tarzda ta'lim berish hamda olgan bilimlarni amaliyotda tadbiq etish. Hozirda ba'zi oliy o'quv yurtlarida ushbu tizimda dars o'tmoqda.

— Sun'iy intellekt yordamida ta'lim: Muhandislik psixologiyasini o'qitish jarayonida talabalar va o'qituvchilar uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Bu turdagi o'qitish metodikasida zamonaviy texnologiyalar har bir talabaning psixologiyasini atomatik o'rganadi va shunga moslashtirilgan holda darslarga oid ma'lumotlar, uy vazifalari, sinov savollari taqdim etadi. O'qituvchilar talabalar, nazariy bilim darajasini baholash, psixologik holatini aniqlash va o'zgarishlarni kuzatish uchun sun'iy intellekt yordam bera oladi.

Dastlabki o'quvchilarni ilg'or talabalar yoki mutaxassislar bilan bog'lash orqali bilim almashish va psixologik yondashuvni rivojlantirish yaxshi samara beradi. Iqtidorli, alohida tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqchi bo'lgan talabalarga ushbu ma'naviy yordam nihoyatda muhim. Chunki bajarilayotgan tarjibalar, loyihalar qanchalik to'g'ri ekanligi, to'g'ri yo'l ko'rsatishligi kerak.

Kasbiy anglash o'z kasbi hayotini loyihalashtirish, mas'uliyat bilan kasb mutaxassislik va ish-joyini tanlash borasida qaror qabul qilish o'ta muhimdir. N.S.Pryajnikov amalga oshirilgan tajribalar asosida quyidagicha degan

“Kasbiy anglashning mohiyati aniq ma'daniy-tarixiy vaziyatda bajariladigan ish va butun hayot mazmunini mustaqil va anglagan holda topishdadir”. Bunda demoqchiki, inson kasbiy faoliyatni anglashning faqat ishni bajarish emas, balki uni o'zining hayot yo'li va jamiyatdagi o'rnini ham tushunishni ham anglatadi. Bu vazifani ham muhandislik psixologiyasi fani o'rgatadi.

MUHOKAMA

So'nggi 20 yillikda barcha sohalar yangiliklar, tadqiqotlar, rivojlanishlar bilan mavjud bo'lib hayotda o'z o'rnini egallamoqda. Bir fanning boshqa bir fan bilan faoliyati jihatidan bog'lanib yangi fanlar paydo bo'lmoqda. Inson bir kasbni egallashi bilan nafaqat mutaxassislik fanlarini, balki kasb faoliyati muntazam ravishda rivojlanishi, ishiga doir muammolarni hal etishga boshqa fanlar ham zarur.

Muhandislik psixologiyasi fani ham ana shunday muhim fanlardan bir bo'lib, texnika – texnologiya sohasining har bir jabhasida zaruriy va keraklidir. Shuning uchun ham texnika universitetlarida bu fanni o'qitishning samarali metodikalarini ishlab chiqish kerak.

Shu bilan birga bu fanni o'rganish jarayonida quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish muhimdir:

- turli nizolarning oldini olish;
- personallar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish;

– fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish – inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish.

Muhandislik psixologiyasi fanini o'qitishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

– bo'lg'usi muhandis mutaxassislarni kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish;

– kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish;

– huquq mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish;

– huquq yo'nalishida ta'lim olayotgan mutaxassislarning kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish;

– kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish.

XULOSA

Shunday qilib, tizimli yondashuv psixologiya va muxandislikning turli

usullari bilan birga, faoliyat jarayonining asosiy psixologik qonuniyatlari, shaxsning tuzilishi va huquqiy normalar tizimining o'zaro ta'sirini etarlicha chuqur tahlil etish va aniqlashga, ushbu o'zaro ta'sirning barcha ishtirok etuvchi elementlarini inobatga olgan holda aniq tavsiflash va muhim xususiyatlarini ajratishga imkon beradi.

Har bir sohada yangi texnologiyalarni qo'llab yuqori natijalarga erishilganini guvohi bo'lmoqdamiz. Ta'lim tizimida ham shunday yangilikni kiritib faoliyat yurita boshlandi. Sun'iy intellekt infratuzilmani monitoring qilish, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, texnik hamda tibbiy diagnostika tizimlari, shaxsiy ta'limning yangi tizimlarini yaratish, xulq-atvor tahlillari qilishga imkon beradi. An'anaviy ta'lim tizimida talabalarga bir xil tarzda ta'lim berilsa, sun'iy intellekt foydalangan holda o'qitish esa inson psixologiyasini tushunib, uning natijasida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.N.Yulchiyeva,S.T.Ruzmetova . Muhandislik psixologiyasi (O'quv qo'llanma) – T.:” Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023 – bet 252
2. Z.B.Qurbonova,D.D.Oribboyeva Mehnat va muhandislik psixologiyasi (o'quv qo'llanma) –T.: “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI”NMIU, 2023. – bet 212.
3. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov,N.I.Xalilova.Kasb psixologiyasi –T.:”Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi”,2010. – 162
4. B.F.Lomova , Muhandislik psixologiyasi asoslari - M.: Высшая школа,1986
5. B.A.Dushkov,A.V.Korolev,B.A.Smirnov Muhandislik psixologiyasi asoslari –M.: Akademicheskii proyekt, 2020.– 574

6. G.Ya.Aleksyutina , Muhandislik psixologiyasi – M.: “Belarus-Rossiya universiteti”, 2019.
7. V.A.Mixaylov , Muhandislik psixologiyasi va ergonomikasi – T.:2002
8. O.A.Abdurasulov , Muhandislik psixologiyasi
9. E.G'. G'oziyev , Psixologiya – T.:” O'qituvchi” ,2008. – 353
10. E.G'. G'oziyev , Umumiy psixologiya – T.:” O'qituvchi” ,2002
11. E.G'. G'oziyev, K.Q.Momedov , “Kasb psixologiya” – T.:
12. S.F.Sergey, Muhandislik psixologlari va ergonomika: Darslik. M.: Maktab texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, 2008.176 b.
13. <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi>